Po‘lat o‘tda toblanadi, odam mehnatda

Metallurg Minbari



O‘zbekiston metallurgiya kombinati aksiyadorlik jamiyatining gazetasi

2026-yil 5-noyabr № 21 (1583)
Gazeta 1992-yil 7-martdan nashr etilmoqda

SUN’IY INTELLEKT – YANGI IMKONIYATLAR

Metallurgiya sanoatini yangi bosqichga olib chiqishda raqamli texnologiyalar, malakali kadrlar va sun’iy intellektdan samarali foydalanish talab etiladi.

2

BARQAROR TARAQQIYOT ASOSI

Asosiy e’tibor korrupsiyaga olib kelishi mumkin bo‘lgan xavflarni aniqlash, ularni muntazam tahlil qilish va bartaraf etishga qaratilishi lozim.

3

SIZ KIMGA HAVAS QILASIZ?

Insonning qadri uning boshqalardan ustunligi bilan emas, o‘ziga berilgan hayotni qanday mazmun bilan yashayotgani bilan belgilanadi.

4

INVESTITSIYAVIY HAMKORLIK – YANGI IMKONIYATLAR ESHIGI

METALLURGIYA KELAJAGI SARI MUHIM QADAM

O‘zbekiston metallurgiya sanoatini rivojlantirish, mahalliy xomashyo resurslaridan samarali foydalanish va mamlakatning sanoat salohiyatini yanada yuksaltirishda “Tebinbuloq” temir rudasi konini o‘zlashtirish loyihasi alohida ahamiyatga ega. Ushbu loyiha nafaqat “O‘zmetkombinat” AJning kelgusi taraqqiyoti, balki mamlakatimizda qora metallurgiyaning to‘liq ishlab chiqarish zanjirini shakllantirish uchun ham katta imkoniyatlar ochadi.

Yaqinda “O‘zmetkombinat” AJ Boshqaruv raisi – Bosh direktori Bahodir Abdullayev AQSHning yirik investitsiya kompaniyasi “Eldridge Industries” hammuassisi, raisi va bosh ijroiya direktori Todd Boeli bilan uchrashuv o‘tkazdi. Muloqot davomida “Tebinbuloq” temir rudasi konini o‘zlashtirish, loyihani amalga oshirish imkoniyatlari va investitsiyaviy hamkorlik istiqbollari muhokama qilindi.

Avvalroq Todd Boeli O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan ham qabul qilingan edi. Bu mamlakatimizda xalqaro hamkorlikni kengaytirish va yirik investitsiyalarni jalb etishga qaratilayotgan e’tiborning muhim ifodasidir.

Tebinbuloq loyihasi tarixida bir necha tashkiliy bosqichlar kuzatilgan. 2017-yilgacha kon “O‘zmetkombinat”ning xomashyo mustaqilligini ta’minlashga qaratilgan muhim loyihalaridan biri bo‘lgan. 2017–2020-yillarda u “O‘zbekiston temir yo‘llari” tizimida bo‘ldi, 2021-yildan esa loyihani amalga oshirish bilan “Enter Engineering” kompaniyasi shug‘ullandi.

Endilikda Tebinbuloq loyihasining “O‘zmetkombinat” strategik manfaatlari doirasida yana kun tartibiga chiqishi kombinatning mavjud ishlab chiqarish tajribasi va mahalliy xomashyo imkoniyatlarini uyg‘unlashtirish uchun yangi istiqbollarni ochmoqda.

Temir rudasi konlarini o‘zlashtirish metallurgiya korxonalarining xomashyo ta’minotini mustahkamlash, importga qaramlikni kamaytirish va ishlab chiqarish barqarorligini oshirishda muhim o‘rin tutadi.

(Davomi 2-sahifada).

OG‘IR SINOVLARDAN YANGI MARRALAR SARI

BIR YILLIK ISLOHOTLAR SAMARASI









“O‘zmetkombinat” aksiyadorlik yamiyati uchun 2025-yilning avgust oyiga qadar bo‘lgan davr korxona tarixidagi eng murakkab bosqichlardan biri bo‘ldi. Iqtisodiy, moliyaviy va ishlab chiqarish sohalarida yuzaga kelgan qiyinchiliklar korxona faoliyatini tubdan qayta ko‘rib chiqishni taqozo etdi.

2025-yil avgust oyida yangi rahbariyat ish boshlashi bilan kombinat faoliyatida yangi bosqich boshlandi. Ishlab chiqarishni barqarorlashtirish, mavjud muammolarni bartaraf etish va samaradorlikni oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar natijasida bir qator muhim ko‘rsatkichlarga erishildi.

Metallurgiya korxonasi faoliyatining uzluksizligi, avvalo, xomashyo ta’minotiga bog‘liq. Shu bois temir-tersak parchalarini yig‘ish va qabul qilish tizimini takomillashtirishga alohida e’tibor qaratildi.

2025-yil avgustidan 2026-yil avgustiga qadar jami 650 ming tonna qora metall parchalari va chiqindilari qabul qilindi. Metallolom yig‘ish tizimining qayta tashkil etilishi natijasida uning hajmi ikki barobarga oshirilib, oyiga 65 ming tonnaga yetkazildi.

Ishlab chiqarish ehtiyojlarini ta’minlash uchun yetarli zahira yaratilgan.

Elektrda po‘lat eritish bo‘linmasi tomonidan 2025-yil avgustidan 2026-yil avgustiga qadar 837,5 ming tonna po‘lat eritildi. Ta’mirlash ishlarini samarali tashkil etish va ishlab chiqarish jarayonlarini takomillashtirish natijasida sutkalik eritishlar soni 14 tadan 24 taga yetkazildi.

(Davomi 2-sahifada).



METALLURGIYA KELAJAGI SARI MUHIM QADAM

(Davomi. Boshlanishi 1-sahifada).

“Tebinbuloq” loyihasining amalga oshirilishi ruda qazib olishdan tortib, uni qayta ishlash va metall ishlab chiqarishgacha bo‘lgan jarayonlarni bir zanjirga birlashtirish imkonini berishi mumkin. Bu esa qo‘shimcha iqtisodiy qiymat yaratish, yangi ish o‘rinlarini tashkil etish va mahalliy mutaxassislar salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

Albatta, bunday yirik loyihani ro‘yobga chiqarishda investitsiya hajmi, zamonaviy texnologiyalar, infratuzilma, ekologik talablar va jahon bozoridagi narxlar kabi omillarni hisobga olish zarur. Ayniqsa, metall narxlari o‘zgarib turadigan sharoitda iqtisodiy samaradorlikni ta’minlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu bilan birga, strategik loyihalarning ahamiyati faqat bugungi bozor konyunkturasi bilan belgilanmaydi. Ularning mamlakat sanoat mustaqilligi, uzoq muddatli xomashyo ta’minoti va milliy iqtisodiyot barqarorligiga qo‘shadigan hissasi ham muhimdir.

“Tebinbuloq” loyihasi atrofidagi muzokaralar va xalqaro investitsiyaviy hamkorlik istiqbollari O‘zbekiston metallurgiya sanoatini yangi bosqichga olib chiqish yo‘lidagi muhim qadamlardan biridir. Loyihaning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi “O‘zmetkombinat”ning ishlab chiqarish salohiyatini oshirish, mahalliy resurslardan samarali foydalanish va mamlakatimizda zamonaviy qora metallurgiyani rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ismat DIYOROV.

BIR YILLIK ISLOHOTLAR SAMARASI

(Davomi. Boshlanishi 1-sahifada).

2025-yil avgustidan 2026-yil sentabriga qadar 870 ming tonna metall prokat ishlab chiqarildi. Bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 34 foizga yuqori bo‘ldi.

Bu ishlab chiqarish hajmining o‘sishi xomashyo ta’minotini yaxshilash, uskunalarning ishonchliligini oshirish va texnologik jarayonlarni samarali tashkil etish borasida amalga oshirilgan ishlar natijasidir.

Kombinatda ishlab chiqarish hajmini oshirish bilan birga mahsulot tannarxini pasaytirishga ham e’tibor qaratildi. Natijada tannarxni kamaytirishda ijobiy ko‘rsatkichlarga erishildi.

Jumladan, bir tonna navli prokat tannarxi 6,9 million so‘mdan 6,6 million so‘mga, po‘lat zoldirlar tannarxi esa 7,8 million so‘mdan 7,1 million so‘mga tushirildi.

Bu o‘zgarishlar ishlab chiqarish xarajatlarini maqbullashtirish va resurslardan samarali foydalanish orqali mahsulot raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Joriy yilning avgust oyidan noyabrgacha ham kombinatda amalga oshirilayotgan ijobiy o‘zgarishlar an’anasi davom etdi. Bu, ayniqsa, kombinat aksiyalarining narxi Toshkent birjasida ko‘tarilayotganidan ham yaqqol ko‘rinadi.

O‘tgan yil avgust oyida “O‘zmet-kombinat” AJning bir dona oddiy aksiyasi birjada 3 ming 890 so‘mdan sotilgan bo‘lsa, bu yil avgust oyida uning narxi 6 ming 785 so‘mga chiqdi. Oradan ikki oydan ziyod vaqt o‘tib – bugun 5-noyabr kuni kombinatning har bir dona oddiy aksiyasi 8 ming 799 so‘mdan sotildi.

Kombinatning barqaror yaxshi natijalarga erishib kelayotganligi natijasida uning aksiyalarining narxi ham oshib bormoqda.

Qisqa davrda erishilgan natijalar “O‘zmetkombinat” faoliyatini barqarorlashtirish va ishlab chiqarish imkoniyatlarini kengaytirish yo‘lida muhim ahamiyatga ega. Xomashyo zahirasini tiklash, po‘lat eritish sur’atini oshirish, metall prokat ishlab chiqarishni ko‘paytirish va tannarxni kamaytirish borasidagi ishlar korxona taraqqiyoti uchun mustahkam zamin yaratmoqda.

Endilikda asosiy vazifa – erishilgan natijalarni mustahkamlash, ishlab chiqarish samaradorligini yanada oshirish va kombinatning iqtisodiy barqarorligini ta’minlashdan iborat.

Zero, barqaror taraqqiyot tizimli islohotlar, mehnat jamoasining hamjihatligi va har bir yo‘nalishda samarali ish tashkil etilishi bilan ta’minlanadi.

Diyor ZULFIQOROV.





METALLURGIYA TARAQQIYOTI: RAQAMLASHTIRISH, ILM-FAN VA KOOPERATSIYA

SUN’IY INTELLEKT – YANGI IMKONIYATLAR

Zamonaviy metallurgiya sanoatini raqamli texnologiyalar, ilmiy yondashuv va samarali hamkorliksiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Bugungi kunda ishlab chiqarishni avtomatlashtirish, sun’iy intellektdan foydalanish, energiya sarfini kamaytirish va uskunalar holatini raqamli nazorat qilish korxonalar raqobatbardoshligini belgilovchi muhim omillarga aylanmoqda.

Samaradorlik garovi

Metallurgiya korxonalarida raqamlashtirish texnologiyalarini joriy etish uskunalardan samarali foydalanish, mahsulot tannarxini pasaytirish, energiya sarfi va texnik xizmat xarajatlarini qisqartirish imkonini beradi. Bunda asosiy maqsad inson omilini ishlab chiqarishdan chetlashtirish emas, balki xodimlarning bilim va tajribasini zamonaviy texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirishdir.

Ilm-fan va ishlab chiqarish hamkorligi

Metallurgiyaning kelajak taraqqiyoti malakali kadrlar va ilmiy salohiyatga bog‘liq. Shu bois ta’lim muassasalari va ishlab chiqarish korxonalari o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Bekobod metallurgiya kombinatida qora metallurgiya bo‘yicha kafedra tashkil etilishi va dual ta’lim tizimining yo‘lga qo‘yilishi malakali mutaxassislar tayyorlashda muhim qadamdir. Zero, zamonaviy metallurg nafaqat ishlab chiqarish texnologiyalarini, balki raqamli boshqaruv, avtomatlashtirish va energiya tejamkorligi sohalaridagi bilimlarni ham puxta egallashi lozim.

Sanoat taraqqiyoti omili

Metallurgiya sanoatining rivojlanishida kichik va o‘rta biznes subyektlari ham muhim o‘rin tutadi. Mamlakatimizda sohada 150 ga yaqin kichik va o‘rta xususiy korxonaning faoliyat yuritayotgani bu yo‘nalishdagi imkoniyatlar kengligidan dalolat beradi.

Yirik korxonalar atrofida kooperatsiya zanjirlarini shakllantirish mahalliylashtirishni kuchaytirish, yangi mahsulot turlarini o‘zlashtirish va import o‘rnini bosuvchi ishlab chiqarishni kengaytirishga xizmat qiladi.

O‘zbekiston metallurgiya kombinati hududida O‘zbekiston ekologik texnologiyalar sanoat parkini tashkil etish tashabbusi ham shu maqsadlarga qaratilgan. Bu yerda katta diametrli quvurlar, ko‘tarma kranlar va filtrlash uskunalari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan loyihalarni amalga oshirish rejalashtirilgan. Mazkur tashabbuslar yangi sanoat tarmoqlarini rivojlantirish va mahalliy korxonalar o‘rtasidagi hamkorlikni kengaytirish uchun zamin yaratadi.

Istiqbol izchil taraqqiyotda

Xulosa qilib aytganda, metallurgiya sanoatini yangi bosqichga olib chiqish raqamli texnologiyalar, malakali kadrlar va samarali kooperatsiyani uyg‘un rivojlantirishni talab etadi. Bu yo‘nalishlardagi ishlar ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, resurslardan oqilona foydalanish va korxonalar raqobatbardoshligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

O‘zbekiston metallurgiya kombinati uchun ham zamonaviy texnologiyalarni o‘zlashtirish, ilm-fan bilan hamkorlikni kuchaytirish va mahalliy ishlab chiqaruvchilar bilan aloqalarni rivojlantirish kelgusi taraqqiyotning muhim omillaridan biridir.

Ilhom ISMATOV.

KORRUPSIYA DAVLAT VA JAMIYAT RIVOJIGA TO‘SIQ

HALOLLIK – BARQAROR TARAQQIYOT ASOSI

Korrupsiyaga qarshi kurashish deganda ko‘pincha pora olish yoki berish bilan bog‘liq holatlar ko‘z oldimizga keladi. Aslida esa bu illatning ko‘rinishlari ancha keng. Tanish-bilishchilik, mansab vakolatidan shaxsiy maqsadlarda foydalanish, manfaatlar to‘qnashuvini yashirish, qaror qabul qilishda kimgadir asossiz ustunlik berish kabi holatlar ham halollik va adolat tamoyillariga ziddir.



Shu bois korrupsiyaning oldini olishga faqat huquqbuzarlik sodir etilganidan keyin chora ko‘rish nuqtayi nazaridan yondashib bo‘lmaydi. Eng muhimi, korrupsiyaviy xavflarni yuzaga keltirishi mumkin bo‘lgan sabab va sharoitlarni oldindan aniqlash hamda bartaraf etishdir.

Bu vazifa faqat komplayens xizmati, ichki nazorat yoki mas’ul bo‘linmalar zimmasida emas. Korxonada mehnat qilayotgan har bir xodim korrupsiyaga qarshi kurashish jarayonining bevosita ishtirokchisidir.

Xodim o‘z vazifasini bajarishda qonunchilik va ichki tartib-qoidalarga amal qilishi, shubhali holatlarga befarq bo‘lmasligi, shaxsiy manfaat bilan xizmat vazifasi o‘rtasida to‘qnashuv yuzaga kelgan taqdirda esa bu haqda belgilangan tartibda xabar berishi muhim.

Ayniqsa, manfaatlar to‘qnashuviga jiddiy e’tibor qaratish lozim. Xodimning shaxsiy manfaati uning xizmat vazifasini xolis bajarishiga ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan vaziyatlar o‘z vaqtida aniqlanib, belgilangan tartibda hal qilinishi kerak. Bunday holatni yashirish yoki unga ko‘z yumish esa muammoni bartaraf etmaydi. Aksincha, xavfni erta aniqlash va ochiq muhokama qilish uning salbiy oqibatlarga olib kelishining oldini oladi.

Lavozim, tanishlik yoki shaxsiy munosabatlar qonun va adolat mezonlaridan ustun bo‘lmasligi kerak. Rahbarga ham, oddiy xodimga ham talabning bir xil bo‘lishi jamoada adolat va ishonch muhitini mustahkamlaydi.

Korrupsiyaga qarshi profilaktika, ayni paytda, mehnat intizomi va mas’uliyatni oshirishga ham xizmat qiladi. Zero, xodim o‘z mehnati xolis baholanishiga, qarorlar esa aniq va adolatli mezonlar asosida qabul qilinishiga ishonch hosil qilsa, jamoada sog‘lom raqobat, tashabbuskorlik va ish samaradorligi ortadi.

“O‘zmetkombinat”da minglab insonlar o‘z mehnati bilan korxona taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shib kelmoqda. Ishchi va muhandisdan tortib mutaxassis va rahbargacha bo‘lgan har bir xodimning mehnati korxonaning umumiy natijasida o‘z o‘rniga ega.

Shu nuqtayi nazardan, korrupsiyaga qarshi kurashishni faqat sodir etilgan holatlarga munosabat bildirish bilan cheklab bo‘lmaydi. Asosiy e’tibor korrupsiyaga olib kelishi mumkin bo‘lgan xavflarni aniqlash, ularni muntazam tahlil qilish va bartaraf etishga qaratilishi lozim.

Buning uchun xodimlarning huquqiy savodxonligini oshirish, korrupsiyaviy xavflarni muntazam baholash, ichki nazorat mexanizmlarini takomillashtirish, ish jarayonlarini raqamlashtirish va inson omilini kamaytirish, qaror qabul qilishda ochiqlikni ta’minlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Eng muhimi, halollikni faqat talab yoki shior sifatida emas, balki kundalik mehnat faoliyatining ajralmas qoidasiga aylantirish zarur. Qaror qabul qilishda xolislik, vazifani bajarishda mas’uliyat, hamkasblarga munosabatda adolat va qonun talablariga qat’iy rioya qilish sog‘lom mehnat muhitining muhim mezonlaridir.

Har bir inson o‘z mehnati munosib baholanishiga ishongan, qarorlar ochiq va adolatli qabul qilingan muhitdagina tashabbus va samaradorlik uchun keng imkoniyatlar yuzaga keladi. Ana shunday muhitni yaratish esa bugungi vazifalarni sidqidildan bajarishdan boshlanadi.

Hasan HAYDAROV,
“O‘zmetkombinat” AJ Boshqaruvi raisining moliya, transformatsiya va xususiylashtirish bo‘yicha birinchi o‘rinbosari.

KORRUPSIYA YO‘Q JOYDA TARAQQIYOT BOR

Tashmachilik – jamiyatda halollik va ishonch tamoyillariga putur yetkazadigan, korxona manfaatlariga zarar keltirishi mumkin bo‘lgan salbiy illatdir. Birovning mulkini yashirincha olib chiqish yoki o‘zlashtirishga urinish nafaqat qonun talablarini buzish, balki mehnat jamoasi oldidagi mas’uliyatni ham unutishdir. Har bir ishchi-xodim halol mehnatni qadrlashi, korxona mulkiga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lishi va qonunga zid harakatlardan tiyilishi lozim.

Kombinat tarkibiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlarida profilaktik targ‘ibot tadbirlari, seminar-treninglar muntazam ravishda o‘tkazilmoqda. Ularda korrupsiyaviy holatlarning oldini olish, bunday holatlarga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, xizmat vazifalarini bajarishda qonunchilik talablari hamda odob-axloq qoidalariga qat’iy rioya etish masalalariga alohida urg‘u berilmoqda.

Jumladan, Energetika, Navli prokatlash, Zoldir prokatlash, Elektrda po‘lat eritish bo‘linmalari, Reja-iqtisodiyot boshqarmasi, Bosh energetik va Bosh mexanik xizmatlari, Quyuv-prokat majmuasi, kombinat markaziy laboratoriyasi hamda Ekologiya bo‘limida ana shunday seminar-treninglar tashkil etildi.

Shuningdek, kombinat tizimidagi “Metallurgiya servis markazi” MCHJ, “Bekobod Klining” MCHJ, “Metallurg” PFK, “Bekobod emal” MCHJ, “Bekobod kislorod ishlab chiqarish” MCHJ va “Ovqatlanish kombinati” MCHJ kabi tashkilotlarda ham profilaktik tadbirlar o‘tkazildi.

Korrupsiyaning har qanday ko‘rinishiga murosasiz munosabatni qaror toptirish, qonun ustuvorligini ta’minlash va odob-axloq me’yorlariga amal qilish – kombinatning har bir xodimi uchun muhim vazifadir.

G‘anisher NURMATOV,
Komplayens xizmati menejeri.

JAVOBGARLIKDAN QOCHIB BO‘LMAYDI

SUD ZALIDAN



2026-yil 18-avgust kuni “O‘zmetkombinat” AJning 2-sonli nazorat-o‘tish joyida kombinatdan chiqib ketayotgan "KamAZ" rusumli, davlat raqami 10 420 QAA bo‘lgan yuk avtomashinasi Bekobod shahar IIB huzuridagi qo‘riqlash xizmati xodimi tomonidan tekshirilgan. Tekshiruv davomida avtomashina saloniga yashirib qo‘yilgan uch dona yuk mashinasi tormoz moslamasi aniqlangan.

Ushbu holat yuzasidan to‘plangan hujjatlar sudda ko‘rib chiqildi. Sud majlisida huquqbuzar sifatida so‘roq qilingan Elyor Tajiqulov o‘z aybiga iqror bo‘lib, yuk avtomashinasini ta’mirlash uchun olib chiqib ketayotgan vaqtda tormoz moslamalari avtomashina salonida qolib ketganini bildirgan. U sodir etgan harakatidan chin ko‘ngildan pushaymonligini, tegishli xulosa chiqarganini va bunday holat boshqa takrorlanmasligini ta’kidlab, suddan yengillik berishni so‘ragan.

Sudda Tajiqulovning harakatlari O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 61-moddasi birinchi qismida nazarda tutilgan, korxona, muassasa va tashkilotlar mol-mulkini oz miqdorda talon-toroj qilish huquqbuzarligi sifatida kvalifikatsiya qilindi.

Sud huquqbuzarga jazo tayinlashda sodir etilgan harakatning xususiyati, huquqbuzarning shaxsi, aybdorlik darajasi, shuningdek, javobgarlikni yengillashtiruvchi va og‘irlashtiruvchi holatlarni inobatga oldi. Sud qarori bilan Elyor Tajiqulov aybli deb topilib, unga bazaviy hisoblash miqdorining bir baravari hajmida jarima jazosi tayinlandi. Olib qo‘yilgan uch dona tormoz moslamasining qaytarilgani ham inobatga olindi.

Inson har bir xatti-harakatining huquqiy oqibatlarini anglashi, qonun talablariga amal qilishi va o‘z mehnati bilan yaratilgan boyliklarni qadrlashi lozim. Qonunga hurmat va mulk daxlsizligiga mas’uliyat bilan yondashish har bir xodimning kundalik hayotdagi muhim tamoyili bo‘lishi kerak. Halol mehnat, intizom va o‘zaro ishonch mustahkam bo‘lgan jamoada huquqbuzarliklarning oldini olish va umumiy maqsadlarga erishish imkoniyati yanada ortadi.

Farhod ZOKIROV,
Jinoyat ishlari bo‘yicha Bekobod shahar sudining tergov sudyasi.

METALLURGLAR IJODIDAN

SIZ KIMGA HAVAS QILASIZ?

Odamlarning taqdiri turlicha. Oramizda boy va kambag‘al, amaldor va oddiy ishchi, baland va past bo‘yli, sog‘lom va bemor, yosh va keksa insonlar bor.

Ammo ularning bir o‘xshash jihati mavjud: deyarli har bir inson o‘zini boshqalar bilan solishtiradi va hayotida nimadir yetishmayotganini o‘ylaydi. Boy odam sog‘liqqa, kambag‘al boylikka, yosh tajribaga, keksa esa yoshlikdagi kuch-quvvatga havas qiladi.

Oddiy ishchi amaldorning mavqei va obro‘siga qarab: "Qani endi men ham shunday lavozimga ega bo‘lsam", deb o‘ylaydi. Amaldor esa ish kunidan so‘ng xotirjam oilasi bag‘riga qaytayotgan ishchiga qarab: "Qani endi mening ham hayotim shunday osoyishta bo‘lsa", deb orzu qiladi.

Ularning orzu-havaslarini eshitgan donishmand shunday dedi:

– Sizlar boshqalarning hayotidagi ko‘rinadigan ne’matlarni ko‘rasiz, ammo ko‘rinmaydigan yuklarni ko‘rmaysiz. Boylikning tashvishi, lavozimning mas’uliyati, yoshlikning tajribasizligi, keksalikning dard va og‘riqlari sizga



ko‘rinmaydi.

Darhaqiqat, birovning hayotiga havas qilish oson. Ammo uning taqdirini, mas’uliyatini va tashvishlarini ko‘tarishga hamma tayyor emas.

Inson ko‘pincha o‘zidagi bor ne’matlarni oddiy, boshqalardagi narsalarni esa qimmatli deb biladi. Holbuki, sog‘liq, oila, xotirjamlik, halol mehnat, mehr va ishonch – inson ularni yo‘qotmaguncha qadrini to‘liq anglab yetmaydigan buyuk ne’matlardir.

Insonning qadri uning boshqalardan ustunligi bilan emas, o‘ziga berilgan hayotni qanday mazmun bilan yashayotgani bilan belgilanadi.

Birovning boyligi sizni qashshoq qilmaydi. Uning go‘zalligi sizni xunuk qilmaydi. Birovning muvaffaqiyati sizni mag‘lubga aylantirmaydi. Chunki boshqaning yo‘li sizning yo‘lingiz qiymatini kamaytirmaydi.

Balki, siz bugun oddiy deb o‘ylayotgan hayot kimningdir kechayu kunduz qilayotgan duosidir.

Shuning uchun hayotda "Nega men unga o‘xshamayman?" degan savol bilan emas, balki "Menga berilgan ne’matlarni qanday qadrlayapman va o‘zimdan qanday yaxshi iz qoldiraman?" degan savol bilan yashash kerak.

Chunki dunyoda sizdan boyroq, chiroyliroq, kuchliroq yoki muvaffaqiyatliroq insonlar ko‘p bo‘ladi. Ammo sizdek inson bitta. Sizga berilgan umrni esa sizdan boshqa hech kim yashay olmaydi.

Ismadiyor MAMATQULOV.

HIKMATLAR XAZINASI

* Insonlarni kitob kabi anglang. Muqovasiga qarab aldanmang, ichini o‘qib chiqqachgina mohiyatini bilarsiz…

* Ichingni tashhingdan ham ko‘ra ko‘proq pokla, obod qil, chunki tashhingni xalq ko‘radi, ichingga Alloh ko‘radi…

* Ba’zan ma’sumligimizga farishtalar havas qiladi, ba’zan johilligimizdan shayton qocharga joy topolmaydi…

* Dunyoga kelganimizning asosiy g‘oyasi – Allohni tanimoq, iymon keltirmoqdir.

* Tilingni tarbiya qilishdan avval dilingni tarbiya qil. Chunki so‘z tilga dildan chiqib keladi.

Jaloliddin RUMIY.

SOG‘LOM TURMUSH TARZI VA OVQATLANISH

Suv balansi: Kunni bir stakan iliq suv ichishdan boshlang. Bu organizm uyg‘onishiga va moddalar almashinuvini tezlashtirishga yordam beradi.

Tomoq va immunitet: Tomoq og‘rig‘i yoki shamollashda bir stakan iliq sutga 1 choy qoshiq zarchava (kurkuma) va 1 choy qoshiq asal qo‘shib ichish foydali.

To‘g‘ri ovqatlanish: Taomnomangizda ko‘proq yangi sabzavotlar, ko‘katlar va mevalar bo‘lishiga e’tibor bering, kechki ovqatni esa uxlashdan 3-4 soat oldin yeganingiz maqsadga muvofiq.

KUNDALIK SALOMATLIK

Faollik: Har kuni kamida 30 daqiqa toza havoda sayr qilish yoki yengil jismoniy mashqlar qilish yurak-qon tomir tizimini mustahkamlaydi.

Uyqu va dam olish: Kechasi kamida 7-8 soat uxlash asab tizimini tiklaydi va ish qobiliyatini oshiradi.

YAXSHI IMKONIYAT BOY BERILDI

FUTBOL: PRO-LIGA

Futbol bo‘yicha Pro-Liganing 23-tur uchrashuvlari jamoalar o‘rtasidagi raqobatni yanada keskinlashtirdi. Turnir jadvalida ikkinchi o‘rinda borayotgan “Sho‘rtan”ning safarda “G‘azalkent”ga 1:2 hisobida mag‘lub bo‘lishi “Metallurg” jamoasi uchun ayni muddao bo‘ldi.



Ushbu imkoniyatdan unumli foydalangan metallurgchilar 19-oktabr kuni safarda Farg‘onaning FarDU jamoasini 1:0 hisobida yengib, Superligaga to‘g‘ridan to‘g‘ri yo‘llanma beruvchi ikkinchi o‘ringa ko‘tarildi. Natijada musobaqa tugashiga 3 tur qolganda "Metallurg"ning Superligaga chiqishi “o‘z qo‘liga” o‘tdi.

Biroq keyingi turda “Metallurg” Bekobodda “G‘azalkent”ni yenga olmadi – 2:2. Bundan foydalangan “Sho‘rtan” safarda Pro-Ligada peshqadamlik qilayotgan “Orol”ni yengib, yana ikkinchi o‘ringa ko‘tarildi.

Ikkinchi o‘rin uchun kurashda asosiy raqibidan bir ochko ortda qolayotgan “Metallurg” Pro-Liganing 25-turi doirasida 1-noyabrda safarda "Lochin" futbol klubi bilan o‘yinda yana durang o‘ynadi – 1:1.

So‘nggi turda “Metallurg” 9-noyabr kuni Bekobodda Superligaga chiqish masalasini muddatidan oldin hal qilgan “Orol” jamoasini qabul qiladi. Bu o‘yindagi g‘alaba ham bekobodliklarga kuchlilar safiga to‘g‘ridan to‘g‘ri chiqish imkoniyatini bermaydi. Hammasi 7-noyabr kuni bo‘lib o‘tadigan “Sho‘rtan” – “Buxoro Universiteti” o‘yiniga bog‘liq. Agar ushbu bahsda “Sho‘rtan” o‘z maydonida ochko yo‘qotsa, “Metallurg” esa g‘alaba qozonsa, bekobodliklar Proligada 2-o‘ringa ko‘tarilib, Superligaga chiqadi. Biroq buni vaqt ko‘rsatadi...

Jahongir HAMROYEV.

XAVFSIZLIK – BOSH MEZON

Bugungi kunda ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilma obyektlarini modernizatsiya qilish, mavjud binolarni rekonstruksiya qilish bilan bir qatorda, qurilish jarayonlarida xavfsizlik talablariga qat’iy rioya etish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, yangi obyektlarni foydalanishga topshirishda yong‘in xavfsizligi, mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi me’yorlarini ta’minlash inson hayoti va salomatligini asrashning muhim shartidir.

Shu maqsadda “O‘zmetkombinat” AJ O‘FVB hamda kombinatga qarashli loyiha tashkiloti hamkorligida rekonstruksiya qilinayotgan binolar loyihasi bilan yaqindan tanishildi.

O‘rganish jarayonida qo‘shimcha evakuatsiya inshootlarini barpo etish bo‘yicha texnik shartlar, qurilish ishlarida belgilangan me’yor va talablar atroflicha muhokama qilindi.

Mutaxassislar tomonidan ishchilarga tegishli tushuntirishlar berilib, xavfsizlik qoidalariga beparvolik bilan qarash turli noxush holatlarga sabab bo‘lishi mumkinligi eslatildi.

Karim OLIMOV.

Po‘lat o‘tda toblanadi, odam mehnatda
Metallurg Minbari

MUASSIS:
O'zbekiston metallurgiya kombinati aksiyadorlik jamiyati.

www.uzbeksteel.uz

Muharrir:
Ismadiyor MAMATQULOV

TAHRIRIYAT: Bekobod shahar “O'zmetkombinat” aksiyadorlik jamiyatining Ijroiya apparatida joylashgan.

Tel: 10-19

Gazeta oyda ikki marta chiqadi.

Gazeta tahririyat kompyuterida terilib, sahifalandi.
Bichimi A-3.
ISSN 2181-645X

Sahifalovchi:
Ismadiyor MAMATQULOV

Toshkent viloyati Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasi tomonidan 2015-yil 6-mayda 03-006 raqam bilan ro'yxatga olingan.